



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR
BUXGALTERIYA HISOBINING METODOLOGIK MASALALARI

Abdullayev Bunyod O'tkirovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

"Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası mudiri. +998 99 677 27 92

E mail: bunyod.abdullayev2792@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-2086-9532>

Ergashov G'ayratjon To'liqin o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistr

Dolzarblik. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uzoq muddatli aktivlardan - asosiy vositalar va nomoddiy aktivlardan - foydalanish samaradorligiga bog'liq. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash jarayonlarida bu aktivlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni baholash, hisobga olish, amortizatsiyalash hamda hisobotlarda aks ettirishda bir qator metodologik muammolar mavjud bo'lib, ularni ilmiy jihatdan hal etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muammo. Hozirgi kunda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobida qator tizimli muammolar mavjud: 5-son BHMS "Asosiy vositalar"da aktivlarni tasniflash va tanlash mezonlari yetarli darajada aniqlanmagan; asosiy vositalarni qayta baholashdan so'ng hisobdan chiqarish operatsiyalarida schyotlarda aks ettirish tartibi munozarali bo'lib qolmoqda; nomoddiy aktivlar, xususan gudvill, franchayz, dasturiy ta'minot va yerdan foydalanish huquqini buxgalteriya hisobida tan olish va baholash metodologiyasi xalqaro standartlar (MHXS) bilan to'liq moslashtirilmagan. Bundan tashqari, kapital xarajatlarni operatsion xarajatlardan farqlash sub'ektivligi moliyaviy natijalarning noaniqligiga olib kelmoqda.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik muammolarini aniqlash hamda ularni hal etishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari.

Birinchidan, asosiy vositalarni hisobga olish metodologiyasida kapital xarajatlar va operatsion xarajatlarni farqlash muammosi tahlil qilindi. "Quva tekstil" MChJ misolida ko'rsatilishicha, qayta baholanmagan asosiy vositani hisobdan chiqarish 10 500 000 so'm zarar, qayta baholangan asosiy vositani esa - 8 400 000 so'm foyda keltirganligi qayd etilgan. Bu holat 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 22-23-bandlariga izohli ilovalar kiritish zarurligini ko'rsatadi: xarajatlarni kapitallashtirish mezonlari aniq belgilanishi lozim.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ikkinchidan, nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari o'rganildi. Chet el olimlari (R.N.Entoni, J.G.Siegel, B.Nidlz va boshq.) va mahalliy tadqiqotchilar (A.Abdullayev, A.K.Ibrohimov, K.B.Urazov) asarlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijada yer uchastqalaridan foydalanish huquqini nomoddiy aktiv sifatida, mulkiy egalikning o'zi mavjud bo'lganda esa asosiy vosita sifatida tan olish tavsiya etildi. Bundan tashqari, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan xarajatlarni nomoddiy aktivlar tarkibidan chiqarib, alohida to'rtinchi guruh - "Muddati uzaytirilgan debitor qarzar va kechiktirilgan xarajatlar" sifatida kiritish taklif qilinadi.

Uchinchidan, asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobining munozarali masalalari ko'rib chiqildi. Statik va dinamik buxgalteriya hisobi kontseptsionalari taqqoslandi. Dinamik hisob usuli asosiy vositalar qiymatini tanlash bo'yicha tamoyillar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlashi isbotlandi. Amortizatsiya me'yorlarini asosiy vositalarning foydali xizmat muddatiga emas, balki ular keltiruvchi iqtisodiy nafga qarab belgilash zararliligi ko'rsatildi.

To'rtinchidan, 2021–2025-yillar ma'lumotlari asosida tahlil qilinganki, asosiy vositalarga investitsiyalar 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 180 barobarga oshgan. Xususan, byudjetdan tashqari fondlar va tijorat banklari kreditlari hissasi mos ravishda 800 va 120 barobarga ko'paygan. Bu holat asosiy vositalar hisobi metodologiyasiga nisbatan zamonaviy talablarni kuchaytirmoqda.

Uslubiy tavsiyalar.

Birinchi yo'nalish - 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning 11-bandiga "Uzoq muddatli aktivlar - bu korxona tomonidan uzoq muddat mobaynida (12 oydan ko'p) foydalanish uchun ulush, hadya ko'rinishida hamda xarid qilib olinadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag'lardir" degan ta'rif bilan to'ldirish.

Ikkinchi yo'nalish - 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ning 4-bandida asosiy vositalar tarkibiga kiritish mezonlarini qiymati bo'yicha emas, balki foydali xizmat muddati va keltiruvchi iqtisodiy naf asosida belgilash; shuningdek kapital xarajatlarni kapitallashtirish uchun aniq mezon va cheklovlarni kiritish.

Uchinchiy yo'nalish - Moliyaviy hisobotning 3-shakli "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot"ni bekor qilib, uning o'rniga "Uzoq muddatli aktivlar holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma" ilovasini kiritish. Bu barcha uzoq muddatli aktivlar - asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar va boshqalar - to'g'risidagi axborotni yaxlit aks ettirish imkonini beradi.

To'rtinchi yo'nalish - asosiy vositalarni qayta baholashda "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotining kredit qoldig'ini asosiy vositalar hisobdan chiqarilayotganda moliyaviy natijaga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazmaslik; o'rniga ushbu qoldiq taqsimlanmagan foydaga proporsional ravishda o'tkazilishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik muammolarini ilmiy asosda hal etish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotning aniqligini ta'minlash, investitsion qarorlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qabul qilishning ob'ektivligini oshirish va aktivlardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan takliflar milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) talablari bilan yanada muvofiqlashtirish va korxonalar moliyaviy holatini to'g'ri baholash uchun zarur asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2016.
2. 5-son BHMS "Asosiy vositalar". - Toshkent: Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, 2004.
3. Abdullayev A. va bosh. Moliyaviy hisob. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 288 b.
4. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. - Toshkent: Fan, 2005. - 201 b.
5. Gadoyev E.F. va bosh. Uchet i nalogooblojeniye osnovnyx sredstv i nematerial'nyx aktivov. - Tashkent: Mir ekonomiki i prava, 2004. - 208 s.
6. Nidlz B., Anderson X., Koldwell D. Printsipy buxgalterskogo uchyota. - M.: Finansy i statistika, 1993.
7. Международные стандарты финансовой отчётности (МСФО). - М.: Аскери-ACCA, 1998.

